



**FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA  
QURILISH ISHLARI**


**2022-yil yanvar-mart**

## 2022-yil yanvar-mart oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylariga,

Farg'ona viloyatida jami

1 570,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi.




### Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 110,8 % foizga oshgan (360 birlik).

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 foizga oshgan (216 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,3 foizga oshgan (55 birlik);

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,6 foiz ulushni va 108,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi (89 birlik).




## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlik

	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.04.2021-y.	01.04.2022-y.	
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3683</b>	<b>3323</b>	<b>110,8</b>
<b>Farg'ona sh.</b>	<b>1003</b>	<b>891</b>	<b>112,6</b>
<b>Qo'qon sh.</b>	<b>353</b>	<b>329</b>	<b>107,3</b>
<b>Quvasoy sh.</b>	<b>130</b>	<b>115</b>	<b>113,0</b>
<b>Marg'ilon sh.</b>	<b>344</b>	<b>342</b>	<b>100,6</b>
<b>Oltiariq</b>	<b>122</b>	<b>114</b>	<b>107,0</b>
<b>Qo'shtepa</b>	<b>108</b>	<b>102</b>	<b>105,9</b>
<b>Bag'dod</b>	<b>161</b>	<b>158</b>	<b>101,9</b>
<b>Buvayda</b>	<b>139</b>	<b>127</b>	<b>109,4</b>
<b>Beshariq</b>	<b>92</b>	<b>92</b>	<b>100,0</b>
<b>Quva</b>	<b>153</b>	<b>144</b>	<b>106,3</b>
<b>Uchko'prik</b>	<b>198</b>	<b>183</b>	<b>108,2</b>
<b>Rishton</b>	<b>93</b>	<b>78</b>	<b>119,2</b>
<b>So'x</b>	<b>85</b>	<b>51</b>	<b>166,7</b>
<b>Toshloq</b>	<b>140</b>	<b>134</b>	<b>104,5</b>
<b>O'zbekiston</b>	<b>97</b>	<b>81</b>	<b>119,8</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>138</b>	<b>103</b>	<b>134</b>
<b>Dang'ara</b>	<b>140</b>	<b>128</b>	<b>109,4</b>
<b>Furqat</b>	<b>83</b>	<b>75</b>	<b>110,7</b>
<b>Yozyovon</b>	<b>104</b>	<b>76</b>	<b>136,8</b>


2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

## 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da



Joriy yilning yanvar-mart oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 229,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,2 marta tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 49,5 % punktga ko'payib, 14,6 %ni tashkil etdi.

## 2022-yil yanvar-mart oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Marg'ilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 75,2 %i yoki 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,8 marta ko'p), Yozyovon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 11,6 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,8 % usish sur'ati) va Farg'ona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 7,5 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 143,1 % usish sur'ati)ga to'g'ri keldi.



2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-mart oylariga kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,4 %i to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga ko'rsatkichiga nisbatan 33,8 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 88,2 %ni tashkil etgan holda 902,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da



*Ma'lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Farg'ona shahri (248,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 128,4 %), Bag'dod tumani (134,9 mlrd. so'm yoki 95,5 %), Qo'qon shahri (130,4 mlrd. so'm yoki 95,3 %) va Buvayda tumani (49,0 mlrd. so'm yoki 76,9 %) to'g'ri keldi.*

2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 27,9 %ni tashkil etdi yoki 438,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 127,9 %ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 21,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1549,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 1,3 % va 98,7 %ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-mart oylaridagi Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022-yil yanvar-mart oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 76,8 %i yoki 1 206,1 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 214,4 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 17,8 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 401,5 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,3 %ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 590,2 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,9 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022-yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta quollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	1570,2	107,3	1206,1
Farg'ona sh.	330,9	111,8	283,6
Qo'qon sh.	169,4	100,4	91,9
Quvasoy sh.	43,1	100,3	25,0
Marg'ilon sh.	236,4	102,9	217,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	42,7	107,6	38,5
Qo'shtepa	82,2	104,4	58,1
Bag'dod	163,3	103,0	52,4
Buvayda	84,5	116,9	79,3
Beshariq	24,0	100,1	19,1
Quva	46,1	100,3	39,8
Uchko'prik	39,6	106,5	37,8
Rishton	30,2	113,8	24,4
So'x	23,7	132,4	18,4
Toshloq	56,4	136,7	45,1
O'zbekiston	51,2	107,4	47,7
Farg'ona	20,4	103,4	13,0
Dang'ara	50,6	101,6	45,7
Furqat	30,2	100,0	25,5
Yozyovon	45,2	121,5	43,4

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

**2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari**

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 14,6 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 8,6 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 10,6 % punktga kamayib, 52,3 %ni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'payib, 33,1 %ni tashkil etdi.

### Ulushi, %da

Yirik qurilish  
tashkilotlari

Kichik korxonalar  
va mikrofirmalar

Norasmiy  
sektor



2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlar

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,6 %ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,9 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 63,7 % (19,7 % punktga kamayishi) hamda norasmiy sektorning ulushi 19,7 %ni tashkil etdi (15,8 % punktga ko'paydi).




### Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari



Norasmiy sektor



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021-yil yanvar-mart




2022-yil yanvar-mart

2022-yil yanvar-mart oylaridagi Farg'ona viloyatida qurilish ishlari


## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi va 10,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 89,4 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.



2022-yil yanvar-mart oylaridagi Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

## Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



*Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Farg'ona sh. (330,9 mlrd. so'm), Marg'ilon sh. (236,4 mlrd. so'm), Qo'qon sh. (169,4 mlrd. so'm), hamda Bag'dod t. (163,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.*

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42

2022-yil yanvar-mart oylaridagi  
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari